



Islomda farzand tarbiyasi

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islomshunoslik” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Tursinaliyeva Madinaxon Maqsudali qizi*

Annotatsiya: Farzand insonning dunyoda qoldiradigan yagona izi, kelgusi avlodlarga nasihat o‘larоq aytar so‘zidir. Maqolada bani Odamga berilgan farzand ne’matining buyukligi, islom dinida farzand tarbiyasi bo‘yicha ko‘rsatilgan qoidalar, ota-onaning farzand oldidagi majburiyatlari va farzandning ota-onaga nisbatan rиoya qiladigan burchlari, shuningdek, tarbiya va odob to‘g’risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: farzand, tarbiya, farzandning huquq va vazifalari, axloq-odob, ilm, omonat, duo, nafaqa, milliy qadriyatlar, o‘zbekona tarbiya.

Farzand insonga berilgan ne’matlar ichida eng ulug‘ ne’mat bo‘lib, yer yuzida inson bolasining nasli, nom-nishoni davom etishi, dunyoning obod bo‘lishi uchun Alloh bandalariga farzand ne’matini ato qilgan. Bashariyatning ayrimlariga farzand ato etilib, ayrimlariga esa o‘zining ma’lum hikmati bilan berilmagan yoki ularni bu bilan imtihon qilingan. Bunday holatlar hamma narsadan xabardor Zotning hikmatiga ko‘radir. Bu haqida Qur’oni karimning “Sho‘ro” surasi 49-50-oyatlarida shunday marhamat qilinadi. **“Osmonlar va Yerning hukmronligi Allohga (xos)dir. U O‘zi xohlagan narsani yaraturlar. U O‘zi xohlagan kishiga qizlarni hadya eturlar. U O‘zi xohlagan kishiga o‘g’illarni hadya eturlar. Yoki ularga o‘g’illar va qizlarni qo‘sib berurlar. U O‘zi xohlagan kishini tug’mas (bepusht) qilib qo‘yurlar. Albatta, U (barcha narsani) biluvchi va (O‘zi xohlagan narsani yaratishga) qodirdir”¹.** Shubhasiz, imtihon, sinov qadri yuksak, ulug‘ ne’matlar ustida bo‘ladi. Demak, farzand ne’mati ham Alloh taolonning qullariga ehson etgan eng fazilatli ne’matlaridandir. Odamzot bu

¹ Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2022. – B. 488.



ulug' ne'matning qadriga yetishi, shukr qilishi va uning haqlarini ado etib, munosib tarbiya berishi shartdir.

Bola ota ruhida bo'lgan vaqt, so'ng ona rahmiga o'tganidan to balog'atga yetguniga qadar bo'lgan davr mobaynida farzandning ota-onaga nisbatan qator haqlari borki, buni har padari buzrukvor-u validalar to'kis ado etishga harakat qilmoqlari lozim bo'ladi. Zamonamizning buyuk ulamosi shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari ushbu haqlarni o'zlarining "Baxtiyor oila" kitoblarida daqiq jihatlarigacha ochib berishga harakat qilgan. Bu haqlar, xususan, farzandga munosib ota va ona tanlash majburiyati, Alloh taolodan solih farzand tilab, duoda bo'lish, bunda davomli bo'lish, farzand tug'ilishidan avval onasiga mehribonlik orqali uning jismoniy va ruhiy toliqishlarsiz yaxshi rivojlanib borishini ta'minlash, nasl-nasabni asrash, imkon darajasida farzandga ikki yillik to'liq sut berish, munosib ism tanlash, yangi tug'ilgan bolaning qulog'iga azon va takbir aytish, bolaning tanglayini ko'tarish, bolaga aqiyqa qilish, o'g'il bolani xatna qildirish, bolani qaramog'iga olish, bolaga valiylik qilish, bolalar nafaqasi, bolaga mehribonlik, bolalar orasidaadolat qilish, farzand tarbiyasi, balog'atga yetgan bolalarning nikohi.

Islom fitratida bo'lgan, Alloh taolonning roziligidagi yetishaman, U Zotning buyruqlariga itoat qilaman degan ota-oni, albatta, omonat bo'lgan farzand oldidagi ushbu haqlarni bajarishga ixlos bilan harakat qiladi. Shuningdek, ota-onaning farzand oldidagi burchlari kabi farzandning ham o'z ota-onasiga rioya qiladigan odob va burchlari mavjud. Xususan, Alloh ota-onasiga bergan ne'matlari va ota-onasiga ko'rsatgan inoyatlari uchun U Zotga shukr qilish, ota-onani jerkimaslik va ularga "uff" ham demaslik, ularga tavozu' ko'rsatib, mehribonlik qilish, ularning oldiga izn so'rab kirish, ular kelganda o'rnidan turib kutib olish, ularni ismi bilan atamaslik, ulardan oldin yurmaslik va o'tirmaslik, oldilariga kirganda va chiqqanda ularga salom berish, ularni eng yoqimli lafzlar ila chaqirish, ularga dinlari va dunyolarida manfaat beradigan gaplarni aytish, dinda ular bilmaydigan narsalarni o'rgatish, ikkisining barcha vojib va mandub amrlariga itoat qilish, ikkisi tark qilishga amr qilgan narsalardan o'ziga zarar



qilmaydiganlarini tark qilish, ota-onaning oldiga kirganda faqat ularning izni bilangina o‘tirish, ota-onan bilan o‘tirganda ularning ruxsatisiz chiqib ketmaslik, ota-onadan sodir bo‘lgan narsani agar ulardan bemorlik yoki qarilik tufayli bavl qilib yuborishga o‘xshash ishlar bo‘lsa ham qabih sanamaslik.

Hech shubha yo‘qli, ona suti bilan birga qalbiga islom nurlari jo bo‘lgan, iymon lazzatidan bahralanib, chinakam haq yo‘lda tarbiya topgan farzand vaqtiki ota-onasiga Alloh roziligi va Robbisi amr qilgani uchun eng go‘zal suratda muomala qiladi, ularning barcha haqlarini mukammal bajarishga o‘zini safarbar etadi. Bu haqda “Isro” surasi 23-24-oyatlarida shunday marhamat qilinadi:

“Robbingiz Uning O‘zigagina ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey inson,) agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga “uff!..” dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so‘z ayt! Ular uchun mehribonlik bilan xorlik qanotini past tut va (duoda): “Ey Robbim! Meni (ular) go‘daklik chog’imda tarbiyalaganlaridek, Sen ham ularga rahm qilgin”, – deb ayt!”².

Yuqorida farzandning haqlari zikrida aytib o‘tilganidek, farzand tarbiyasi ota-onaning asosiy burchlaridan biri sanaladi. Garchi bu kalima ikkitagina so‘zdan iboratligi bois oson bir ish kabi tuyulsa-da, aslida uning mas’uliyati juda zalvorlidir. Boisi, butun jamiyatning ertasi qanday bo‘lishi, insoniyatning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi, dunyo maydonida sodir bo‘ladigan ijtimoiy buhronlar, qo‘zg’olonlar, urushlar yoki kashfiyotlar, tamaddun, taraqqiyot aynan mana shu “Farzand tarbiyasi” birikmasiga bog’liq. Tarbiya masalasiga juda yuksak baho bera turib Abdulla Avloniy: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”³, – deb aytganki, bu hikmatda ayni haqiqat mujassamlashgan. Aniqki, odam bolasiga tarbiya to‘g’ri berilsa, bashariyatning hayot,

² Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2022. – B. 284.

³ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2006. – B. 32.



najot, saodat va baxti uchun xizmat qilgani holda agarda noto‘g’ri tarbiya o‘rgatilsa, bani Odamni halokat, falokat, zalolat va nadomatga duchor etadi. Darhaqiqat, farzand tarbiyasi, unga munosib odob berish masalasi umuminsoniyatga birdek tegishli bo‘lgan dolzarb vazifadir. Chunki har bir farzand, har bir insonning ertaga qiladigan har ishi butun sayyoramizga, butun odamzotga taalluqli bo‘ladi va ta’sir ko‘rsatadi. Sa’diy Sheroziy “Guliston” asarida bitgan ushbu hikmatning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kengashi imorati peshtoqiga hoshiyalanishi ham ayni so‘zning yaqqol dalilidir: “Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo‘lganlari tufayli yaxlit bir vujud kabidirlar. Binobarin, zamon uning bir a’zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a’zolari ham o‘z tinchini yo‘qotadi”.

“Odob” so‘zi arabcha “adab” so‘zining ko‘pligi hisoblanib, jamiyatda e’tirof etilgan xulq normasidir. Har bir jamiyatning odobi uning dini, qadriyatlari, an’analaridan kelib chiqqan umumiy me’yordir. U shaxs ma’naviy, madaniy dunyosining tashqi jabhasini ifodalaydi hamda o‘zgalar bilan munosabat jarayonida, masalan, oila, do‘slik, mehnat jamoasi, ta’lim muassasalari, turli marosim va tadbirlarda namoyon bo‘ladi. Odob kishining jamoat orasida o‘zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo‘sinda muomala qilishi, o‘z turmushi, bo‘sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo‘lishi lozimligiga tegishli qoidalarni o‘z ichiga oladi. Odob ta’rifida Abu Zayd “Odob fazilatlardan biriga eltuvchi yaxshi urinishga ishlatiladigan nom”, – deb aytganlar. Insonning diniy e’tiqodi uning odobli bo‘lib kamol topishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, islam dini har bir insonning xulqi go‘zal, siyrati, ma’naviy, ruhiy dunyosi pok, fazilatli va odobli bo‘lib yetishishida eng asosiy vositadir. Odobning juda ko‘p turlari mavjud bo‘lib, bular odam farzandini “Hazrati Inson”ga aylantiradi. Pokiza islam fitratida shunday go‘zal odoblar mavjudki, ularga ega bo‘lish odamzotni hidoyatga yetaklaydi. Jumladan, salomlashish, izn so‘rash, o‘tirish, yozish va majlislar odobi, aksa urish va aksa uruvchiga tilak bildirish, go‘daklarga go‘zal ismlar qo‘yish, kalom, maskan va maskan tutish, taomlanish va ichimlik ichish, mehmondorchilik, to‘y va marosim, boshqa dindagilar bilan muomala,



kiyinish, shaxsiy ozodalik, xalo va istinjo, taxorat va g'usl, yo'l, yo'lovchi, safar va suhbat, internet, tijorat, masjid, qo'shnichilik, kasb, bemor, tabib, o'lim, janoza, ta'ziya odoblari va yana ko'plab odob turlari borki, oxiriga yetish maholdir. Albatta, bu odoblar husni xulqning go'zal cho'qqisi va ularni ota-onas farzandiga, muallim shogirdiga o'rgatgan, yetkazgan va singdirgan vaqtida tarbiyaga aylanadi. Muayyan odobni farzandga so'z, tanbeh yoxud go'zal ibrat tariqasida o'rgatish orqali unga tarbiya beriladi. Tarbiya – har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan aqliy-jismoniy, badiiy-estetik va axloqiy-ma'naviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuidir. Odob-axloqning tajribali, ko'pni ko'rgan ota-onalar, ustozlar, yoshi ulug'lar tomonidan berilishi tarbiyaga aylanadi. Kaykovus butun hayoti davomidagi kechmishlarini farzandiga pand-nasihat o'laroq "Qobusnoma" asarida yozib qoldirganki, uning tajribalari avlodlarga tarbiya maktabi vazifasini o'tashi lozim edi. Ilm ham tarbiya bilan bir qatorda farzandlarga o'rgatilishi eng joiz bo'lgan fazldirki, uni egallaganlar Haqqa yetgusi. Qur'oni karimning 1-oyati "Iqro" – "O'qi!" deya nozil qilinishi Hakim Zotning bandalariga amridir. Abu Dardo (r.a): "Rasululloh (s.a.v)dan quyidagilarni eshitdim dedilar: "Rasululloh (s.a.v): "Kim ilm yo'lini tutsa, Alloh uni jannat yo'liga yo'llab qo'yadi. Albatta, farishtalar ilm talabidagi kishiga rozi bo'lib, qanotlarini yozib turadilar. Darhaqiqat, olim kishi uchun yer – osmondagи mavjudotlar va hattoki suvdagi baliqlar ham istig'for aytadilar. Albatta, olimning obidga nisbatan fazilati to'lin oyning yulduzlarga ko'ra fazliga o'xshaydi. Darhaqiqat, ulamolar payg'ambarlarning merosxo'ridir. Payg'ambarlar dinor va dirhamlarni meros qoldirmadilar, ular faqatgina ilmni meros qoldirganlar. Kimki uni olsa, to'liq nasiba olibdi" – dedilar. Ilmning buyuk maqomi va inson hamisha ilm olishga intilishi joizligi va u bilangina aziz bo'lishi barcha muqaddas manbalarda azaldan ta'kidlangan. Farzandlarga tarbiya bilan birga ilm olishlarini ta'minlash ota-onalarning burchidir.



Islom dini bilan bir qatorda o‘zining ming yillik tarixi, an’analariga ega bo‘lgan donishmand o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarida ham bolaning bir parcha et bo‘lib dunyoga kelganidan to balog’atga yetib, katta hayot ostonasiga qadam qo’yguniga qadar bo‘lgan vaqtning har bir davrida unga qanday tarbiya berish, parvarishlash, vaqtiki xato qilganida qay asosda tanbeh berish, yaxshilikka undash lozimligi batafsil bayon qilingan. Milliy urf-odatlarimizda ota-onalar hattoki voyaga yetib oila qurban farzandlariga ham nasihat, o‘git berib, o‘z hayotiy tajribalari asosida uni hamisha to‘g‘ri yo‘lga yo‘llashlari azaliy qadriyatga aylangan. Ona xalqimiz bolalarni bag‘riga bosganidan to o‘zlari bu yorug‘ olamni tark etgunlarigacha ularga ibrat, odob-axloq, pand-nasihat, tarbiya maktabi vazifasini o‘taydilar. Ota-onalar farzandlariga doimo kattalarga salom berish, ularga so‘z qaytarmaslik, taomni ulardan avval boshlamaslik, katta-yu kichikka xushmuomala bo‘lish, ustozlarni har doim e’zozlash, keksalarga hurmat, yoshlarga izzatda bo‘lish, do‘stga sadoqatli bo‘lish, memondo‘stlik, qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘ning haqlarini ado etish, mazlumlarga, zaiflarga yordam qo‘lini cho‘zish, saxiy, kamtar va har ishda mo‘tadil bo‘lish lozimligini o‘rgatadilar. Farzandlarini jonidan ortiq suyib, ularga doim g‘amxo‘rlik qiluvchi, yaxshilikka chaqirib, yomonlikdan qaytaruvchi, ularning komil axloqli inson bo‘lib tarbiya topishi uchun jon-jahdi bilan harakat qiluvchi mehribon xalq o‘zbek xalqidir. Zamonamizning atoqli va ardoqli shoiri Muhammad Yusuf “O‘zbek haqida ballada” she’rida ta’rif bergenidek, farzandi, uning tarbiyasi, kamoli uchun ona xalqimizdek jonfido millat bo‘lmasa kerak jahonda:

“O‘zbekka o‘xshatish topmoq muammo,
O‘xshasa o‘ziga o‘xshaydi o‘zbek.
Qiyosi yo‘q uning, mehri bir daryo,
Dunyoda bolam deb yashaydi o‘zbek!”⁴

⁴ Muhammad Yusuf. Xalq bo‘l, elim. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2009. – В. 38.



Xuddi shuningdek, demokratik, inson manfaatlari har narsadan ustun bo‘lgan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Bosh Qomusi – Konstitutsiyamizda ham bola huquqlari, uning tarbiyasi, moddiy, ma’naviy va madaniy ta’minoti to‘la ta’milanishi va buni davlat o‘z nazoratiga olishi aks etgan. 77-modda:

“Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’midaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi”⁵.

Albatta, bu butun mamlakatimiz miqyosida ham ertaning egalari – farzandlarga bo‘lgan e’tibor, ularning jismonan va ruhan kamol topishi davlat darajasidagi muhim masala ekanini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, islom dini ta’limotlarida hayotning barcha sohasida ishlarni go‘zal holatda bo‘lishini ta’minlaydigan va muammolar yuzaga kelganda ularga samarali yechim berib, qanday mazmunli yashashni bizlarga aniq va ochiq-oydin o‘rgatib qo‘yilgan. Bugungi kunda ayrim ushbu diniy va milliy qadriyatlarimiz, ta’limimiz ayrim oilalarda e’tiborsiz qo‘ldirilmoqda va ayrim ota-onalar farzandlar tarbiyasi borasida mas’uliyatlariga ahamiyatlari kamayib bormoqda. Natijada farzandlar ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy axborot vositalari orqali tarbiyalanib, G’arb madaniyati yoki ommaviy madaniyat ta’siriga tushib, sharqona tarbiya, milliy odob nurlaridan bebahra qolmoqdalar. Barcha harakatlarimiz farzandlarimiz kelajagi uchun bo‘ladigan bo‘lsa, ular nafaqat jismonan, balki ruhan va aqlan sog‘lom, tarbiyali hamda zamonaviy bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi uchun ularning tarbiyasi bilan shug’ullanish eng asosiy etiborda bo‘lishi kerak. Bunda tarbiyadagi islom andozasi bizning dasturimiz bo‘lib xizmat qiladi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023 – B. 39.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2022. – 617 b.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: “Hilol nashr” nashriyoti, 2021. – 527 b.
3. Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2016. – 166 b.
4. Sa’diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. – 182 b.
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2006. – 270 b.
6. Muhammad Sodiq Muhamamad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: “Hilol-nashr” nashriyoti, 2022. – 455 b.
7. Tarbiya, ensiklopediya. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 526 b.
8. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot (Adab). – Toshkent: “Hilol-nashr” nashriyoti, 2015. – 206 b.
9. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. I-XII. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 735 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023. – 112 b.
11. Muhammad Yusuf. Xalq bo‘l, elim. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2009. – 206 b.